



**“IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDA TABIAT TASVIRI ORQALI
QAHRAMON RUHIY HOLATINING IFODALANISHI**

Sharipova Mahliyo G’ayratovna
FDTU qoshidagi 2-sonli akademik
litsey o’quv bo’lim boshlig’i

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O’.Hoshimov Ikki eshik orasi” romanidagi qahramonlar ruhiy holatini verbal vosita bo’lgan tabiat tasviri orqali ham ifodalagan.*

Kalit so’zlar: *portret, ichki monolog, ekspressivlik, mimika, verbal tushunchalar*

Annotation: *In this article, O. Hoshimov expressed the mental state of the characters in the novel “Ikki eshik orasi” through the verbal means of describing nature.*

Key words: *portrait, internal monologue, expressiveness, facial expressions, verbal concepts*

Аннотация: В данной статье О. Хошимов выразил душевное состояние героев романа «Ikki eshik orasi» через образ природы, который является вербальным средством.

Ключевые слова: *портрет, внутренний монолог, выразительность, мимика, вербальные понятия*

Psixolingvistikaning vazifalaridan biri til birliklari ortida yashiringan psixologik omillarni matnning lingvistik xususiyatlari bilan uyg‘unlikda o’rganishdan iborat¹⁷⁷. Y.Kubryakovaning fikricha, inson tajribasining ma’lum parchasini aks ettirmaydigan va uni fahmlash imkonini bermaydigan matnning o‘zi bo‘lmaydi va bo‘lishi ham mumkin emas¹⁷⁸.

Ruhiy jarayonning tashqi belgilari deyarli barcha tadqiqotlarda psixologik tahlil tarkibida qorishiq tarzda beriladi. Bizningcha, xarakterlarni tasvirlashning ong va ong osti bilan bog‘liq qahramonning ichki mulohaza-o‘ylari, ichki monolog, xotira, tush, assotsiatsiyalar, tasavvuri, ichki kechinmaga parallel berilgan peyzaj tasvirlari bevosita psixologik tahlil bo‘lsa, tashqi tana bilan bog‘liq tasvir obyektlari, ko‘zning turli ma’noda qarashlari, portret, ichki sezim, jest, mimika, muallif nutqi orqali

¹⁷⁷ Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқики. – Тошкент, 2013. – Б.64.

¹⁷⁸ Bu haqda qarang: Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б.248-249.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'YALAR



remarkalarda berilgan xatti-harakatlar bilvosita psixofiziologik jihatdan tahlil etilishi lozim¹⁷⁹.

Hissiyot ifodasi berilgan mikromatnlar badiiy asarlarda turli usullar vositasida yuzaga keltiriladi. Ulardan asosiyilar, bizningcha, quyidagilardan iborat:

1. Asar personajining kechinmalari uning nutqidan anglashiladi.

2. Personajning ruhiy holati asar muallifi nutqi vositasida beriladi. Bunda muallif quyidagi usullardan foydalanadi: a) personajning ruhiy holatini bevosita bayon qiladi; b) personajning jismoniy xatti-harakatlarini ifodalash orqali uning ruhiy holatiga ishora qiladi; v) tabiat tasviri orqali personajning ruhiy holatiga ishora qiladi¹⁸⁰.

Tabiat tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etuvchi muhim omillardan sanaladi. Chunki manzaralar tasvirida ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati, qalamga olingan mavzuga munosabati yuzaga chiqadi. Yozuvchi narsa-hodisalar, inson ruhiyati to‘g‘risida keng tasavvurlar va fantaziya qobiliyatiga ega bo‘lgandagina, qobiliyati teran bilimlar bilan quvvatlangandagina uning ijodi tushunarli, yuksak badiiy ifodaviylik va ta’sirchanlik kasb etadi¹⁸¹.

Adabiyotshunoslar tomonidan tabiat tasviri syujetning muhim tarkibiy qismi ekani va undan qahramonlarning ruhiy holatini olib berishda foydalanish keng uchrashi ta’kidlanadi: “Tabiat tasviri sujetning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, asarning g‘oyaviy-estetik quvvatini oshiradi. Badiiy asarda tabiat hodisalari va ko‘rinishlari sujetning rivojini tezlatuvchi yoki sekinlatuvchi omil sifatida ham tasvirlanishi mumkin. Ammo tabiat manzaralaridan qahramonning ruhiy holatini olib berish uchun foydalanish adabiy asarlarda eng ko‘p uchraydigan hodisadir. Bu holda tabiat tasviri qahramonlar taqdiridagi dramatizmni chuqurlashtiradi yoki ularning ruhlariga kuch baxsh etadi. Demak, qahramonlarning bundan keyingi harakatlarini asoslab, syujet rivojiga ta’sir ko‘rsatadi”¹⁸².

Tabiat tasviri ekspressivlik ifodalashning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo‘lib, poetik matnda tabiat tasviri orqali inson hissiyotlariga ta’sir qilish ko‘zda turilsa, nasriy asarlarda ko‘p hollarda tabiat tasviri orqali qahranonlarning ruhiy holati aks ettiriladi. “Tabiat barcha san’at turlari va janrlari singari, lirikaning ham boqiy mavzularidan biridir. San’at asarlarining qaysi birini olib qaramaylik, undagi peyzaj tasvirida, albatta, inson ishtirok etadi, tabiatning u yoki bu xossasi unga bo‘lgan inson munosabati orqali qayta kashf etiladi; shu sababdan badiiy asardagi tabiat

¹⁷⁹ Ahmadjonova O. Badiiy asar personajlari ruhiy va jismoniy holatlari tasvirining o‘zaro uyg‘unlashuvi (Asqad Muxtorning “Tug‘ilish” va “Chinor” romanlari misolida): Filol. fan. b. fals. dok. ...diss. – Farg‘ona, 2023. – B.31.

¹⁸⁰ Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқики. – Тошкент, 2013. – Б.65-66.

¹⁸¹ Shodmonova D. Yashar Kamol asarlarida peyzaj tasviri va uning tarjimalarda aks etishi // Translation forum, 2022.

¹⁸² Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, 2005. – B.116.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



kartinalarida emotsiyalar bo‘yoqdorlik ufurib turadi. Shu ma’noda peyzaj lirikada inson his-tuyg‘u va kechinmalarining yorqin tajassum topishi uchun fon va ayni vaqtida organik hujayra vazifasini o‘taydi”¹⁸³.

Yozuvchi badiiy matnda tabiat tasvirini keltirish orqali qahramonning hissiyotlariga ishora qiladi. Qahramonning xursandchiligini atrof-muhitning go‘zalligidan, salbiy emotsiyalarini tabiatning xunuk va sovuqligidan ilg‘ab olish mumkin. D.Xudoyberanova tasnifida keltirilgan hissiyot ifodasining tabiat tasviri orqali namoyon bo‘lishi haqida shu qismda to‘xtalib o‘tmoxchimiz. Qolgan usullar to‘g‘risida dissertatsiyaning keyingi boblarida batafsil ma’lumot keltiriladi.

Tabiat tasviri badiiy matnlarning ko‘pchiliga uchraydi. Badiiy matnda yozuvchi tabiat tasvirini shunchaki keltirmaydi, tabiat tasviri orqali sodir bo‘ladigan voqeanning yaxshi yoki yomonligi, qahramonning ruhiy holati taxmin qilinishi mumkin:

... *Tuproq ko‘chalardan uzoq yurdik. Kimsan akamning xirom etigi, mening g‘archli “lodochkam” changga belandi. Biroq ikkalamiz ham bunaqa “mayda-chuyda”larga parvo qiladigan ahvolda emasdik. Osmonda bahor quyoshi erkalanib jilmayadi. Ko‘chaning ikki betidagi bargak chiqargan tollar hozirgina sochini yuvib, oftobda quritayotgan qizdek tamanno qiladi. Qushlar oshiyon qurish tashvishida chug‘urlaydi. Yo‘l chetida qip-qizil qizg‘aldoqlar gilamdek tovlanadi. Ko‘klam shabadasida mastona bosh chayqaydi. Qizg‘aldoqlar orasida onda-sonda ko‘zga chalinib qolayotgan chuchmomalar olamga munis mo‘ralab qaraydi. Ajab, shu ko‘chalardan avval ham o‘tganmidim? Ilgari ham ko‘klam bo‘lganmidi? Nimaga shu gullarni avval ko‘rmagan ekanman? Bu dunyo shunaqa chiroylimi? Oftob shunaqa mayinmi? Qizg‘aldoqlar shunaqa ko‘pmi?* (90-bet)

Tramvayda tekstilgacha keldik. Uyog‘iga piyoda ketdik. Kimsan akam tuproq ko‘chada tap-tap qadam tashlab oldinroqda boryapti. Ertalab-ku, birov ko‘rib qolmasin deb qo‘rqan edi. Hozir qorong‘i-ku! Nega yonma-yon yurmaydi! Qo‘rkoq! Dimog‘imga olma gulining hidi uriladi. Chigirtkalar qo‘ng‘iroq chaladi. To‘qay tomonda bedana pitpildiq otadi. Kunbotar ufqda tillaqoshdek nozik oy yaltirab turibdi. Yangi oy... Oyim qiziq: har gal yangi oy chiqqanida niyat qiladi: “Iloyo yanagi shu kun, shu oylarga omon-eson yetaylik!” Kelasi oy chiqquncha nimalar bo‘larkin? Biz ham omon-eson yetib olaylik. Bobom, oyim, men... Kimsan akam. Birgalashib yetaylik (92-bet).

Kimsan bilan birga sayrga chiqqan Robiyaning xursandligi yuqorida tabiat tasviri orqali anglashiladi. Robiya shu qadar xursandki, changga belanganiga ham parvo qilmaydi, unga atrof go‘zal, yoqimli tuyuladi.

¹⁸³ Urinbayeva S. Usmon Azim she’riyatida tabiat tasviri va inson kechinmalari // <https://cyberleninka.ru/article/n/usmon-azim-she-riyatida-tabiat-tasviri-va-inson-kechinmalari>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



Quyidagi matnda ham yozuvchi tabiat tasviri orqali personajning ruhiy holatini – xurdsandchilagini ko‘rsatib berishga harakat qilgan:

Butun vujudimda shirin bir titroq turdi. Beixtiyor oyimning qo‘lidan yulqinib chiqib berigi uyga kirdim. Derazaning bug‘lanib qolgan oynasini artib hovliga qaradim. Vaqt yarim kechadan oshgan bo‘lsa ham, tashqari yorug‘ edi. Boyagina yetimchalardek diydirab lurgan gultojixo‘rozlar ham, molxonaning qor bosgan lomi ham ko‘zimga olamjahon bo‘lib ko‘rinar, qor degan narsa shunaqa pokiza bo‘lishini, qish degan narsa shunaqa issiq bo‘lishini biringchi marta ko‘rib turganimga o‘zim hayron edim. Oyog‘imga suykalgan mushukning yelkasini siladim. Muncha yumshoq! Qor muncha tiniq! Ana, hammayoq yop-yorug‘! Shunaqangi yorug‘ki, kashta tiksa bo‘ladi! Xayolimga shu o‘y ilinishi bilan taxmondagi qutini titkilashga tushdim. Mana, qiyiqcha! Kimsan akamniki! Yo‘q, bunisimas. Bunisiga gul tikib bo‘lganman. Hov o‘shanda! Ikkalamiz Toshkentga tomoshaga borgan kunimiz, oyimdan bekitib! Yana allaqancha qiyiqchani g‘amlab qo‘yanman. Mana! Shunisiga tikaman! (169-bet).

Xuddi shu qahramon tilidan hikoya qilingan quyidagi matn parchasida esa tevaraf-atrof xunuk, dahshatli ko‘rinadi. Chunki bu paytda Robiya sevimli Kimsan akasini urushga jo‘nab ketayotganidan xavotirda, qayg‘uda:

Tong qorong‘isida yo‘lga tushdik. Bobom Umar zakunchining ulov jo‘natishini kutmasdan o‘zining eshak aravasini taxt qildi. Aravada Kimsan akamning qopi, qopning bog‘ichidan ushlab oyim o‘tiribdi. Aravaning bir tomonida Oqsoqol, ikkinchi tomonida bobom tuproq kechib ketyapti. Kimsan akam ikkalamiz orqaroqda boryapmiz. Bobom xalacho‘p bilan eshakning biqiniga nuqib “xix-xix”laydi. Eshak dik-dik qadam bosadi. Sahar salqinida sovugan tuproq hidi yoqadi shekilli, “xirq-xirq” qilib qo‘yadi. G‘ildiraklar ovozsiz shirillaydi. Chang ko‘tariladi. Shom yegan oy g‘arib mo‘ltiraydi. Goh Kimsan akamga, goh oyimga qarayman. G‘ira-shirada Kimsan akamning yuzini aniq ko‘rmayman. Lekin atrofni tomosha qilib borayotganini payqayman. Nazarimda u negadir jilmayayotganga o‘xshaydi. Oyim ikki bukilib olgan. Xuddi qop-qora toshdan yasalgan haykaldek... Alvasti ko‘prikan o‘tayotganimizda qorong‘i o‘pqonda ilondek vishillayotgan suvgaga qarab, vahmim keldi. Nazarimda butun dunyoning falokati shu yerga to‘planib “bazm” qurayotgandek, atigi bir hafta oldin o‘ynab-kulib yurgan odamlar bugun ma‘yus tortib qolganidan shodlanib mazax qilayotgandek bo‘lib ketdi. Oqsoqolning yuragi siqildi shekilli, Alvasti ko‘pri shovqinini bosib shang‘illadi (107-bet).

Yozuvchilarning o‘ziga xosligini yaqqol ko‘rsatib turadigan narsa bu uning tilidir. Badiiy matn tilining o‘ziga xosligi personajlarning ruhiy kechinmalari, iztirob-u shodliklari, ko‘rgan-kechirganlari, intim tuyg‘ularining qay tarzda aks ettirishda





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ko’rinadi. Badiiy adabiyot tilida o’sha asar yaratuvchisining o’ziga xos individual xususiyatlari ko’rinar ekan, yozuvchining uslubi ikki muhim nuqtada: idrok etish uslubi va ifoda etish uslubida namoyon bo’ladi¹⁸⁴. O’zbekiston xalq yozuvchisi O’.Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida esa bir voqeaga guvoh bo’lgan uch-to’rtta personajning hikoyasi beriladi. Bunda nutqning mazmunidagi munosabat shakli bиринчи о’ринга chiqadi. Bu munosabat orqali kitobxon turli tomondan go’yo projektor nurlari bilan yoritilgan bir voqelik mohiyatinigina emas, ayni paytda ana shu voqelikda harakat qilayotgan insonni ham kashf etadi. Bu jarayonda yozuvchi o’zini mutlaqo namoyon qilmaydi, kerakli xulosani esa o’quvchining o’zi chiqarib olishiga imkon yaratadi¹⁸⁵. Yozuvchilarining o’ziga xos uslubi mavjudligi hech kimga sir emas, aynan o’z uslubi yordamida qahramonlar ruhiy holatini aniq, jonli va ishonarli tasvirlash esa yozuvchidan yuksak mahorat talab qiladi.

Badiiy adabiyotning bosh qahramoni inson ekan, yozuvchi uning quruq bo’ybastini tasvirlash bilan hech qanday natijaga erisha olmaydi. Albatta, qahramonini o’quvchiga yaqin qilish va ta’sirchanligini oshirish uchun uning ichki olamida ro’y berayotgan kechinmalarni qo’lidan kelganicha ifodalashi, atrofidagi odamlarga, narsa va buyumlarga xoh oshkora, xoh yashirin munosabatini anglatishi shart. Ana shundagina qahramon to’laqonli va ishonarli chiqadi¹⁸⁶. O’.Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, hissiyotlarini aks ettirgan asar sifatida ma’lum, asarda har bir qahramonning tilidan keltirilgan hikoyatlar yordamida ularning hissiyotlari namoyon bo’ladi. Boy lisoniy va uslubiy imkoniyatlar aks etgani, qahramonlarning jonli so’zlashuv materiallariga boyligi uchun ham ushbu asar tadqiqot obyekti sifatida tanlab olindi.

Demak, tilning ekspressiv funksiyasi yordamida badiiy matnlarda qahramonlarning ruhiy holati, ichki kechinmalari, quvonchi va iztiroblari, xursandligi va darg’azabligi kabi hissiyotlari aks etadi.

¹⁸⁴ Мамажонов С. Услуб жилолари. – Тошкент:Faфур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.80

¹⁸⁵ Солиженов Й. Бадиий нутқ поэтикаси. – Тошкент, 2023. – Б.15.

¹⁸⁶ Солиженов Й. Бадиий нутқ поэтикаси. – Тошкент, 2023. – Б.102.

